

NURMUHAMMAD AZIZ
ZARIF G'USSALAR



Nurmuhammad Azizov
1990-yil 18-sentyabrda Andijon
viloyati Jalaquduq tumanida
tug'ilgan. 2019-yilda Respublika yosh
ijodkorlarining Zomin seminarida
ishtirok etgan. Ayni damda Andijon
davlat universiteti Ozbek
adabiyotshunosligi kafedrasi
doktoranti.



"**ADAABIYOT**"
NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-67779-5-1



ZARIF
G'USSALAR



NURMUHAMMAD AZIZ

121
434

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
взятач


O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
"JOD" JAMOAT FONDI

NURMUHAMMAD AZIZ

ZARIF G'USSALAR

She'rlar

- 1281 -



TOSHKENT
"ADABIYOT"
2020

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXBUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Nashr uchun mas'ul:

Sirojiddin SAWID,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi

Mas'ul muharir:

Botir ERGASHEV

Ushbu to'plamda jamlangan she'rлarni o'qir ekan-siz, Nurmuhammad singari is'e-dodli ijodkorlar borligidan quvonnemasligingiz dargumon. Uning she'rлarda go'zallikka oshiқ ko'ngil, ezzulik va adolat tuyg'ulari chinakam sayqallanganligini ko'rasiz. Uning borliqa, tabiat mo'jizalariga, hayot hodisalariga, inson imkoniyatlariga boshiqacha, teran nigoh bilan qarashi, hamma ham ko'ravermaydigan taraflarni ilg'ashi, so'z ila tabiatni mohirilik bilan chizishiga guvoh bo'tasiz. Bir so'z bilan aytganda, o'zingizga yosh ukmizining ijod namunalaridan yoqimli mutolaa tilaymiz.

Ushbu kitob 2019-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi sh'eriyat kengashi tomonidan nashriga tavsija qilinib, "Ijod" jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan.

ISBN 978-9943-6779-5-1

© N. Aziz, 2020
© "Adabiyot", 2020

RANGIN OLAM

Anchadan beri unda-bunda Nurmuhhammadning yozganlariga ko'zim tushib qoladi-da, "ha, ta'bi nazmi durust... qalamni ham ravongina ekan", debgina qo'yib o'tavera-man. Rost, kelajakda uning timsolida yaxshiolinni tasavvur qilganim uchun bo'lsa kerak, unl atrofdagi ko'plab she'r havasmandlari si-rasdagina ko'rardim. Shu kitob qo'yozmasiga taqdim yozish bahona uning mashqlari bilan ilk bor mukammalroq, bir butun holda tunishib, tan olmog'im kerak, qalbi hassos, nigohi o'tkir, tafakkuri zakiy shoirga ro'baro'bo'lib turibman, ya'ni Nurmuhhammadni o'zim ham yangidan tanib turibman.

Nurmuhhammadning lirik qahramoni – go'zallikka oshiқ ko'ngil, ezzulik va adolat tuyg'ulari ila charxlangan idrok egasi, tasavvurida yaratib olgani rangin olam bilan ko'z oldidagi naqdi – chirkin voqeqlik orasida turgan, goh o'sha rangin begin kunlarning odatiy izzatroblarini qalamga olayotgan bugunning kishisi. Muhimi, har ikki holda ham u chin dildan so'yaydi, izhorlari rost va samimiy. Ayonki, bunday odam muhitiga sig'maydi.

Xuddi "Geografiya darsida"gi kabi o'zga kengliklarga xayolan ko'chadi, o'sha yerlardan o'ziga yetishmagan nelarnidir izlaydi. Hatto ulug'vor tog'lar ham ko'nglini to'ldira olmaydi:

Axir, menga yoqmas Shiroqning Yuragidan kichkina tog'jar.

Kutilmagan tashbeh - shoirona nigondan bir totim, ifodalanayotgan mazmun esa shirona bezovta qalbdan darak. Nazarimda, bu yosh shoirning kashfidek, yo oldin ham shunaqa tashbehga duch kelibmidim? Qurq'ur, shu savol kallaga bir o'mashib oldi-da, endi anchagacha parmalab turadi... Hay, mayli, nima bo'lganda ham, go'zal ifoda-da!

Nurmuhammadning she'rlarida bugungi kun turmush manzaralarini bitta-ikkita jumla bilan jonlantirib, shundoq o'quvchi ko'z oldiga keltirib qo'yishga intilishni ko'rdim. Bunday o'rinalar yosh shoir turmushni g'oyat teran his qilayotgani, atrofidagi kishilar ko'ngliga oyna tutib, ularning hayotini mushohada qilib orqali o'quvchiga muhim gaplarni aytilishing harakat qilayotganimi ko'rsatadi. O'qib ko'ring: "Otaming so'nggi kunlari", "Onanga", "Gunohi kabira" - sizni ham o'ylatib yurgan narsalar ekanmi? Shunday, masalan, "yoriq to'sindan nigoh uzmay nurayotgan" otaning

novuq o'kalardan janozaga yetib kelolmagan o'g'iliga ilhaq yumilmay ketgan ko'zlaridagi ifoda hozir kimga ham tanish bo'lmasin?!

Vana bir nuqtani alohida ta'kidlashni istardim: Nurmuhhammadning she'rlari bugungi voqeqlik bilan, kishilarimizing bugungi idroki bilan chambarchas bog'lanib ketadi.

Yaxshi bilasiz, bugun kimdir ko'tarinki pafos bilan, kimdir kinoya aralash, kim esa biroz ijroq amibroq "musaffo osmon" deb aytadi... Nazarimda, Nurmuhammad tamom qadr-sizlanayozgan shu kalmanni oqlamoqchi kabi, bir she'rida unga hamohang "musaffo tong" kalmasini ishlataldi, buni turkiy olamning kayrli ertasidan bashorat o'laroq qo'llaydi.

Qurq'ur yosh shoir satrлari zamirida qadim sjiddatlarimizning yurak ohanglarini olis sadoberib turgandek. Bu ohanglarni kamina "Is-fandiyorga" nomli bag'ishlov she'ridan ilg'adim, siz ham qulqoq tutib ko'ring-chi?!

Yosh iste'dodning shunday ulug'lar etagini tutayotganiming o'zi she'rga betama muhabbatdan darak, davomli va xayrli bo'lsin.

Dilmurod QURONOV,
filologiya fanlari doktori, professor.

MART CHIZGILARI

1.

Quvg'in qilar qishni boychechak,
Yozsa doston bo'lar ming varoq.
Hayajoni bosilmas hech ham,
Ichimdag'i shoir telbaroq.

Chuchmomalar

yastanar qato-o-or,

Irmoqlar - xirgoyi, otashin.

Taxtdan tushar mag'lub qahraton,

Bosib olar olamni yashil.

Chuch-

momalar

- erk,

yurak titroqda

Ruhimga nur inadi bordan.

Ta'rif nadir, bog'lar-ku bog'lar,
Dashtlarim-da go'yoki firdavs.

3.

Ju yulduzmi, yog'dumi, diyda,

Yo afsunni?

Parishon qoldim.

Ta'rifingiz Bobur turkiyda

Yozilb ketgan besh asr oldin.

Javorda nodir, zuhmda mohir,

Ishvada qodir, g'amzada ustod",

Masih yomg'ir olib kelar tong,
Har tomchida muhabbat bunyod.
Mart osmoni - yig'loqi osmon,
Ko'z yoshida poklanur dunyo.

2.

Bu nafarmon nafosat ichra
Jilg' alarming ovozi ham she'r.
Malikayi olam - musicha

Manglayimni mohtob singari
Yoritguvchi g'ilmon siz, hur siz.
Ajalmidan besh kun ilgari
O'lishimga arzisiz bir siz!..

...Zumrad fasl quchog'in ochar,

O, bu fusun, tashbeh maholdir.

Dil iżhorim bir jumlada jam,

Bahoringiz bilan, Bahorim!!!

...Zumrad fasl quchog'in ochar,
O, bu fusun, tashbeh maholdir.
Dil iżhorim bir jumlada jam,
Bahoringiz bilan, Bahorim!!!

OTANING SO'NGGI KUNLARI

Nigoh uzmay nuraydi ota,

Guvalak uy, yoriq to'sindan.

Vujudini kemirib yotar

Nogoh o'sgan o'jar o'simta.

Qo'llarida qaltiltar tasbeh,

Yuragiga yutar hasratin.

Zorlanadi bir hovli – pastak,

"Sohibimni o'zing asragin" ...

Oqshomda bir qalqidi osmon,

Bulutlarga berkindi qamar.

Ko'tariildi uvvos, g'alayon,

Peterburgga ketdi shumxabar.

Orzulari bo'g'zidan bo'g'ib,

Vaqt o'tmadı, shoshgani sayin.

Janozaga kelmadi o'gil,

Ko'zlarini yummadi mayit.

ONAMGA

Sen daladan chiqmading, ona,
Xonatlasning xillari chiqdi.
Kuzak quruq qilib masxara
Kalishingni tillari chiqdi.

Sen daladan chiqmading, ona,
Xuftonlarda etak yamading.
Dil bir taraf, dunyo bir taraf,
Xudbin chiqdi Nurmuhammading.

Sen daladan chiqmading, ona,
Omonatim, o'lmasim menin.
O'sha moviy qirlarga qarab
Jonim chiqsa bo'lmasmi menin?

Sen daladan chiqmading, ona...

GEOGRAFIYA DARSI

"Tog'lar...

Yerning abadiy siri,
Bag'ri go'zal, havosi go'zal.
Kengliklarda daydi, izg'irin
Shamollarning yo'llini to'sar.

Tog'lar...

Neccha zamon o'tsa ham,
Buyukligi topmas nihoya..."
Kitobimda ulug'vor, o'ktam,
G'oz turadi bahaybat qoya.

Bu qanday dars...
Zerikdim rosti,

Ruhimdag'i sokinlik abas.
Ko'zoyynakli keksa ustozning
Maqtovlari hamon tugamas.

Derazadan olamga boqdim,
Tashqarida zangori bog'lar.
Axir menga yoqmas Shiroqning
Yuragidan kichkina tog'lar.

BOLALIK SOG'INCHI

O'chirilagan eshik, jinchiroq, sandal,
shur'buruch, qora non va to'rt polapon.
Onanga junro'mol yarashar qanday,
O'tanga yarashar uvada chopon.

Ayoz ichkariga kirolmay xafa,

Haroratda yurak nurlanar obdan -
king haland pardada she'r o'qir opam,
Rumi o'ngib ketgan yashil kitobdan.

Mir shirin hayajon - "Yillar armoni",
Ketihalar qo'yinda orzular bunyod.
O bobosandaida yayragan jonim,
Qorong'u xonada yop-yorug' dunyo...

Ayt, meni qaylarg'a boshlab kelding, yo'l,
Mahot ko'z tilkamin serjilva hulyo.
Ruhimni chavaqlar, bolalikdan so'ng,
Yop yorug' xonada qop-qora dunyo.

SHE'R

She'r – muattarr bo'yli xotira,
Tunga qumday sochilar shoir.
Momaqaymoq so'zlar ortida
Isyon bordir, iztirob bordir.

She'r – ko'ksingdan tomchilagan qon –
Siyohdan gul yasamoq zavqi.
Alangalab gurlagan gulxan
Ichra suvsab yashamoq zavqi.

She'r – jaydari, bejilov hislar,
Neki og'riq bo'lsa, o'shadir.
Bolalikda sinfdosh qizdan
Olimmagan qaynoq bo'sadir.

Shoirni mahv etar Azroil,
She'r – mangulik, poklik, joziba.
Oh, qaniydi, bitta SHE'R yozib,
Hayratidan o'lsam...

Roziman!

QUYOSH

Borliqua saraton,
borliq jizg'anak,
Yurakta qo'r bermas olovli tafting...
Mingta hitligimga sig'mas faxr-la
tinnoqlab ismini o'ydim,

daraxting
qonagan ko'ksini bag'irlab.
Inn' ingroq – yoqimli, huvaydo ingroq,
Inn' ingroq – majnuniy, to'lq'onadi jon.
Inn' soyiq...
Inn' koyil...

Jomolash titroq,
bening shu'lalaring bor-yo'g'i to'zon.
Qondating muvaqqat, yorishar shubham,
Yap'roqlar shivvirlar hazin kuy chalib.
Qoyosh, quyoshshiling yolg'on-u mubham,
Men kuydirmading bitta qizchalik.

BOLALIKDA YOZILMAGAN SHE'R

Menikisan...
Yomg'irli oqshom
Yuragingda dukurlar nomim.
O, lablari la'li Badaxxon,
Menikisan – ishonchim komil.

Shivirlarda nafas qovushgay,
Undov chizar havoga hovur,
Men yettinchi osmonda qushday,
Xoqonlar-da poyimda qolur.

Menikisan, yomg'irli oqshom
Yomg'ir emas, go'yo "Dilxiroj".
Menikisan to ro'zi mahshar,
Menikisan, ko'zları siroj...

Ishlik tars yopildi, zarbidan
bulutlar xo'mraydi g'ashlamib.
Avazing umrimidan uzunday,
Ituzunday yoprildi tashnalik.

Ishlik tars yopildi, zarbidan
na dunyo tativ, na toj-u taxt.
Qolarga bu og'riq fuzunday,
Ketarga makon yo'q lojuvard.

Ishlik tars yopildi...

Tilm biyron andalib endi,
Yesenimman shu turishimda.
Shoir bo'lib birinchi she'rni
Qulog'ingga yozdim tishimda:
MENIKISAN!!!

ISFANDIYORGA

Qoramti bulutday to'zib xavotir,
Oyoqosti bo'lар tuhmat toshlari.
Dovrug'i dunyoni tutar Bobotil,
Moziydan jilmayib boqar Qoshg'ariy.

Bolam, ko'zyoshingni Vatanday asra!

Turkular yog'ililar Turkiston uzra,
Mitti yuraklarda uyg'onar g'ujur.
Soliba kelinlar tosholma tusab,
Yana Qodiriyalar kelar kun uchun.

Bolam, ko'zyoshingni Vatanday asral

Otangga o'xshama...

Yolg'onga tik boq,
Nomard-u nonko'rغا, nodonga tik boq,
Ko'nglimda ne kechsa, to'kdim qog'ozga,
So'zimga jumjima qo'shmadim ilk bor.

Bolam, ko'zyoshingni Vatanday asra!

Xoinlar xoqonday yursa-da garchi,
Kuyinchak ko'zlarda jo'mardlar sharif.
Tilingni bog'lasa nishon – aldamchi,
Ishon, haqiqatni ulug'lar tarix..

* * *

I'nat umidlanma, ko'shk ham, tillo ham,
Mundan qolsa shu she'r, shu istak qolar.
Mu'mifo tong uchun to'kilgan qon ham,
To'kilgan ko'z yosh ham muqaddas, bolam.

Bolam, ko'zyoshingni Vatanday asra!

Koltimga suv tomdi, qog'ozga siyoh,
Ihe'rimda – na zavq bor, na zabarjad bor.
Ko'ning husing xushro'y,
Qiro xoling, oh!!!

Menda na Buxoro, na Samarcand bor!

— 1281 —



O, kuzak yomg'iri – ma'yus xirgoyi,
 Xokisor xazonlar buxoriy gilam.
 Ko'ksimda lolagun jarohat qoym,
 Ko'z yoshim dillaszar tomchilar bilan.

Shul suluv og'riqning Majnuniman men,

Og'riqliki, borligi muattar shodlik,
 Labindan sallamno uchadir faqat.
 Xushifor gunafsha bo'yiday totli,
 Og'riqliki, oldida olam bir chaqa.

Shul suluv og'riqning Majnuniman men,
 She'rlarim qush bo'lar – munglig' mustcha,
 Bir kun yuragingga qo'nadi nogoh.
 Men esa olovli hayajon ichra
 O'sam-da, armonim qolmaydi, voh-voh!

Shul suluv og'riqning Majnuniman men,

Sho'riga halovat,
 Hilinga daxma
 topilmas, tuproqni to'zg'itar hiyla.
 Ming yllar naridan Qul Xoja Ahmad
 hikmatga chorlamish –
 Oshiqlar slyrak.
 Na talotum tinar,
 na tinar g'orat,
 Dunyoni yetaklab borar so'qirlar.
 Subhidam shabnamda olib tahorat
 mayssalar sojida,
 homdod o'qirlar...

Iltakka aylandi kayvoni Umr,
 Bir latza seskandi Azozil – qallob.
 Manglay! Ka'bani o'pdi-yu...
 Iluyin
 nihini osmonga ko'tardi Alloh.

NASIMIY**1.**

Sir, poyingga eltar buyuk Sir,
Yo'l axtarib, halak jon qushi.
Miq etmaydi bulutlar – tilsiz,
Boboquyosh – soqov donishim,
Osmon ochildasturxon emas.

Sirga yetgan sig'mas zaminga,
Chitmanda shay, chora ko'rilar,

Oyboltasi o'tkir g'aniday
Tish qayraydi vahshiy bo'rilar,
Bo'rilar ki, og'zi qon emas.

O, shundayam yurak orzumand,
Umidlar – gul, anvoyi, alvon.
Tegramdagij to'zon-u tuman,
Targalsa-yu, ko'rinsang Mavlo.
Bir sen kerak, jovidon emas.

2.

O'im – o'yin, tomosha go'zal,
Hayratimiz ortdi, Hazratim.
Shoir bo'lsa osdik, shoh bo'lsa,
Ko'ziga mil tortdik, Hazratim.

Olamda rost bormi, kim bilar?
Uyg'oq ovoz bormi, kim bilar?
Saboq berib jumlik ilmidan,
Ustozimiz odil, Hazratim.

Shum nafsimiz jilvagar ilon,
Shul makkoring ilkida jilov,
Zohirimiz zeblangan, zilol,
Botqoq misol botin, Hazratim.

Sirga eltar ilohiy rishta,
Ko'ringaydur na o'ng, na tushda.
Ming yildirk'i, bizlar farishta,
Faqt zamон qotil, Hazratim.

3.

Ming yildirk'i, oshig'i olchi,
Ntqobini yangilar xoin.
Tovonini to'larni ochun,
Tovonidan so'yilsa shoir?!

Ori yo'qa bo'lmagay ohor,
Ayo, turkim, uygung bitarmi?
"Analhaq" deb, hayqirar daho
Uyg'onsang-chi...
Qulog'ing karmi?

TUN

1.

Ko'ngil qushga aylanar – uchqur,
Yaltiroq to'n kiyar tashqari,
G'uj yulduzlar yolg'iz sen uchun,
Qirg'in qilar kunduz lashkarin.

Erk kerakmi?

Mana bir osmon,
Quloching yoz – bir zamin havo.
Bir olam zavq – bir olam doston,
Ozorijon og'riqlar zavol.

Sen Dovud yo Sulaymon hozir,
Izmingdadir borliq shu fursat.
Na boshliq bor, na qog'ozbozlik,
Dorda qalqjan Mashrabday hursan.

2.

Chigirkanning kuyi-da sohir,
Sarin shamol urar to'shingga.
Ko'imakdag'i oyning nigohi
Baytimga ganj bo'lib qo'shilgay.

Tungi ko'day manglayi yorug' –
Tazod, talmeh tinchimni buzar.

Ko'kda shuncha zabarijad bor-u,
Ko'ngil nega faqat she'r tusar...
Erk kerakmi?
Mana bir osmon,
Obizamzam – bir zamin yomg'ir.
Cho'pondamni yo Shavkat Rahmon,
She'flashaylik, Uyg'oqlar bormi?

3.

Farishtalar allalab, malak –
Noz uyquda uxlardi dala.
Qo'shiq aytdim, bersam-da xalal,
Hur ovozim tunga jilo deb.

Sehrlandim, naqadar shodlik,
Yulduz terdim, o, buncha totli!
Bulutlarga bosh qo'yib yotdim,
Tarix bo'lар bu istilo deb.

4.

Tun tobora tovusday ko'r kam,
Ko'knning zeb o chiroyiga zeb –
Yuragimda gurlagan o'tdan
Yozib qo'ydim oyga "Dilo" deb.

Ruhing nurga belangan butkul,
Na araz bor, na tund xotira.

Quchoqlashib so'rashmoq mungkin

Bunda hatto sharpalar bilan.

Yaproqlarning shiviri – Dugoh

Zarnigordir maysa ham, qum ham.

Hayqirasan – vujudi quoq

To'lqinlanar marvarid tun ham.

Tashbeh tutday to'kilar duv-duv,

Sen dahosan, kelguncha sahar.

Q'llaringni kishanlar kunduz,

Shoirni tun kashf etar faqat.

TUSHKUNLIK

Osmon xomush,

junjikar saboh,

Qunish torttar dov-daraxtlar-da,

Ko'chalarda alvasti shamol,

Shamol emas, sovuq xabarday.

Na qushlarning zavqi, na gulning

ifori bor she'rga solarlik.

Nahot, jo'mard yurak – dovulning

shiddati-da yaxlab qolarmi?

Chuchmomani mazax qilar qor,

Og'ir kuydek o'rtar g'am seli.

Ishon, bahor emas, bu bahor,

Beva qolgan uch kunlik kelin.

To'kiladi siyoh ham, sir ham...

Ko'kragingga bosib qo'llingni,

She'r so'ngida kutasan ilhaq,

Istarasi issiq o'llimni.

* * *

BOBO

Qayrag'ochlar qartaydi – rangpar.

Tillo tanga – sochildi xazon,

Ulg'aydi azob,

Tun tun emas, bahaybat sharpa.

Qani o'sha osmon – sehrgar,

Jozibali oq ham, qaro ham,

Ne tilasam bo'lardi bajo.

Quyosh – mayoq,

Hilol – hayajon,

Endi tashbehmi bu, jarohat?

Endi binafsha yo'q,

bahor yo'q,

Kuz esa musavvir,

sovuj rangjarda

Xazonrez bog'larga qilib ro'baro'

Faromush suratim chizar, anglarman...

Yolg'izlik ruhini yenggan odamday

Qovjirar tevarak – giyoh-u maysa.

Shoir yuragimda – o'zga olanda

Yolg'iz sen o'shasan – to'ptosh o'ynaysan.

1.

Bobo, men haqiqat izladim,

Qabringni izlagan kabi mozordan.

Oylab kelmadimmi, yillab kelmadim?

Ko'zları ilhaqim, valine'matim.

Mana, cho'kkān qabr,

Xaroba qabr,

Ko'rpa qaviyotgan qari momomday,

Tashqari ko'rimsiz,

Ichkari jannat.

Bobo, men haqiqat izladim,

Vovaylo, zamin jim,

Zamona jmdir,

Yuragimni o'yib omochday,

Haqiqatni yoz deydi kimdir.

Maydalashib ulgurdik qachon,

Manguberdi chiqqan elmi shu?

Ishora ber, ishorang najot,

Loaqlal, sen bolangi tushun...

Bobo, bunda rafiq yo'q xolis,

Iztirobing ko'rgali baham.

Senga eltar yo'l esa olis,

Umr – toshbaqa.

Bobo, men haqiqat izladim,
Qabringni izlagan kabi mozordan,
Mudom nurli bo'lsin mangu Vattaning,
Ha, aytganday Vatan...
Shoirlarning bari yolg'on yozarlar.

2.

Bobo, Vatan yurakda o'sar,
Yurak o'sar unga bo'yashib.
Meni tutib qolmadi go'za,
So'z ortidan ketdim ergashib...

Kafanlikka mengzab bayroqni,
She'r o'qidim, muzlab qoldi zal.
Botinim gung, sirtim sayroqi,
Sevgim emas, izhorim go'zal.

4.

Bobo, huzuringga keldim yashirin,
O'limgi-da olib bo'yninga.
Tavarakda qurolsiz raqib,
Hurkitdi kunimiz, tun-xobimizni.
Bu na dahshat, bir niqob taqib,
Yechdi ming bir niqobimizni.
Bu na dahshat, o'latmi, vabo?
Xiralashdi olam ranglari.
Zamoniga sig'magan daho
Shoirlarni endi angladim.
Bu iymonga qaytmoq chog'lari -
Chorasizlik, muvaqqat uzlat
"Hikmatlar"ga sho'ng'ib - poklanib,
Yassaviyini tavof etmoq shart.

5.

Bobo, mendan ketgan kuningday -
Aslim bilan - rostim aytaman.
Puch g'oyaga sadoqatingday
Sadoqatim yo'qdir Vatanga.

3.

Bobo, eski hujrani buzdk,
Momom loy tashigan ekan paqirlab.
Ertani shohona yashamoq uchun
Tarixni qo'pordik bir uy faqirlar.

O'ttizida o'ttizta kitob
yozganlarni shoir deb alqab,
ixlosimga o't qo'ydilar, doood!
Men o'ttizga o'ttizta she'r-la
Yetaklashib kiraman nahot.

Tog' bo'lsa-da yemrilar sabot,
O'ttizta she'r ko'nglimga tumor.
Nozik nuqta dedim-ku, bobo,
O'tlim bilan tanishligi bor.

6.

Bobo, men haqiqat izladim,
Haqiqatki, soqolingday oq.
Haqiqatki, zarhalmi, zahar,
She'rimga ruh, ruhingga mayoq.

Xotirinda...

Tuyg'ular tug'yon,
Ko'ngil asov tulpor mahali.
Ko'zlaringga boqardi dunyo
O'qilmagan kitobday halim.
Sahifalar ochildi, tamom,
So'zlar – bo'ri, nafratim qo'zgar.
Ikki kitob ichra tugading, bobo,
Paxta va ro'zg'or.

Keyin ketding...
Dunyo ship-shiydam,
Yashadimmi, chidadim qanday?
Huzuringga keldim oxiri,
Haqiqatga keldim bosh urib,
Haqiqat sen bilan ketganday.
Haqiqat sen bilan ketganday.

7.

Bobo,

Mudom nurli bo'lsin mangu Vataning!

SIYOSAT

(Jadid bobolar xotirasiga)

Uyqu harom uyg'onganda so'z,
Uyqu harom toptalganda sha'n.
O, siyosat – mil tortilgan ko'z,
Ozodlikni xushlamas kishan.

Tug'ildingmi, yashamak jafo,
Yo qulsan, yo ashaddiy yovsan.
Jonsiragan qizil ajdaho,
Qonsiragan bo'ri – siyosat.

Nayranglari oshkora, sirli,
To'g'on bo'lar isyonkor yo'ga.
Tirigida xo'rlar shoirni,
Podshoni o'lgach.

Tashqarida bahor – huriqliq,
Ichkarida vahima jadal.
Qadrdon ham, qalqon ham niqob,
O'lim xavfi kezar ko'chada.

Yashagisi kelar odamning,
Tutqunlikda, tanholikda ham.
Mozorarday sokin, vodarig',
Shovqingga boshqorong'i shahar.

Xojam deya ko'tarib suron,
Sajda qilgan kaslar – tumonat.
Uyg'ondimi ko'nglingiz – mudroq,
Fosh bo'ldimi soxta xudolar?

Qo'rquv yovday bosar yer sharin.
Jum kuzatar Rahim-u Razzoq –
Bir kechada bani basharni
To'rt devorga qamab qo'ygan Zot.

Xushbo'y nasim olamni tutdi
 Siz ertakdan chiqib kelganday.
 O, go'zalim, olovsiz, xuddi -
 Usmon Azim yozgan she'rlarday...

Sen bir xayol - tungi shu'ladek,
 Sen bir orzu - Layliday go'zal.
 Kulgingga cho'kib ketar erk,
 Jodulasa yovvoyi ko'zlar.

Bu ne taqdir - ayriliq.
 Osmon
 alamini sochdi yerlarga.
 Ko'ksimda bir og'riq - yosuman
 Usmon Azim yozgan she'rlarday.

G'ussa - xazon, yog'ilar hazor,
 Gar chekinsam, Majnumim dema.
 Tutqunlikda rohat bor raso,
 Sultonlarning baxti baxt emas.

G'ijmlanar barmoqlarim - musht,
 Ko'zlarim qontalahash, serzarda.
 Men tonggacha g'amgin, faromush
 Usmon Azim yozgan she'rlarday.

Garchi ag'yor g'azabnok, qattol,
 Shafqat bo'ilmas muhorabada.
 Visol - rizvon, uzammoq, hatto
 Shahid ketmoq sharafnaqadar.

Isming aytib, shom-u azonda
 Tipirchilar ko'ksimda qumri.
 Parizoda, bu ne nazzokat,
 So'zim bitmas, bitadi umrim.

Sen bir orzu - Layliday go'zal!!!

Ming yil o'tdi...
 Faqat siz a'lo
 Qiz zotiga qirg'in kelganday.
 Aytdim-ku, siz olovsiz, olov
 Usmon Azim yozgan she'rlarday!!!

JASORAT

Paykon yo'llab purviqor tog'ning
cho'qjisidan parcha yemirmoq,
yo oq otta oralab bog'ni
parilarning tushiga kirmoq,
yo uch boshli devmi, ajdaho?
kuragini ishqamoq yerga,

benomus yurt so'ragan zahot
changal solmoq bo'g'ziga sherdai
imkonlidir, tag'in bemalol
suv o'zanin burmoq teskari,
shiddatimdan dengiz-u olov
iohlari turar seskanib...

... Qara, sukut cho'mdi o'rtaga,
Topilurmi najot yo chora?
Faqat sening hajring o'rtagan
Tundan omon chiqmoq jasorat!

Asli mening ko'zlarim shoir,
She'r o'qimas sendan boshqaga.
Cho'g'bo'lardi mana bu joying,
Ko'z tilini tushunsang agar.

Mana bu men - xazon-u haqir,
Mana bu so'z, so'z emas qasam...
Aytsam, vido naqadar yaqin,
Bo'g'zin mangu kuyar aytmasan.

SHE'RIM

Bunda yog'iy bo'lmas tazod,

Ohangi xush dahr bo'gay.

Sarvim!

Tamsil topmoq azob,

Ko'zim yoshi nahr bo'lgay.

She'rim – sharqona-yu g'amgin,

Tashbehlar tovlanur – rangin,

Qonim ila yozsam hamki,

Na fazl, na faxr bo'gay.

Sel qilguvuchi suvoram she'r,

Gardim to'kib yuborar she'r,

Sening vasling muborak she'r,

Ham zyo, ham zaxm bo'gay...

Qo'lling so'rsam, oh, g'izolim,

Sukut qilsang ham rizolik.

She'rim ganjinam-u, hozir

Na qalin, na mahr bo'gay.

Kaftimda sarg'imtil, uvada surat.

Tirkishdan mo'ralar dilgir, jilvagar

Qonimga qommagan telbavor orzu.

Ko'ksimga cho'g' bo'lib tushmasa agar

Men eng yaxshi o'g'il bo'lardim hozir.
Kaftimda sarg'imtil, uvada surat.

Shamchiroq nurida o'ngigan bo'yoy,

Nimqorong'i xona, kontaxta, guldon.

Charxpalak teskari aylanar go'yo,

Bolalikkha qaytib sultonman, sulton.

Kaftimda sarg'imtil, uvada surat.

Eshikni qulflayman.

Men – baxtli odam,

Tashqarida qolar dunyo – bozingar,

Tashnalab rubimga ob-u havoday

Burchagida sana – tarix yozilgan.

Kaftimda sarg'imtil, uvada surat.

So'zimga mahliyo, shonimni sevmas,

Toyinsam tomosha, bo'g'ilsam bayram,

Tashqarida qolar badnafs devlar,

Tashqarida qolar hiyla-yu nayrang.

MITTI XULOSA

1.

(Umr)

Charxi davor behisht tuyular,
Haya jonga do'nar xumorilik.
Kelishingni tabassum bilan
Qarshi olar ichikkan borliq.

Holva bo'lsang, gullar shodumon,
Polvon bo'lsang, suyungay toshlar.
Soyang ham baxt ulashib - humo,
Yuraklarni isit quyosday...

Xosiyat (opa) Rustamovaga

Ajal esa so'ramas izn,
Umr yo'ldir, tongdan tushgacha.
Ketaringda yorishib yuzi,
Kuzatmasin birov xushchaqchaq.

2.

(Mansab)

Ayg'oqchilar yo'lga tikilar,
Yuraklari g'arib, g'uborli.
Kelishingni tabassum bilan
Kutib olar ig'vogar borliq.

Vijdon - Ko'kdan armug'on ma'dan,
Xushomadga sotma g'ofildek.

Haqqqa habib yuraging - madad,
Diydalarga quvonch ek, baxt ek.

Nogoh taxtdan qirqilsa izing,
Pinagini buzmasa ham charx,
Ketaringda yorishib yuzi
Kuzatmasin birov xushchaqchaq.

Nazmiy saroy.

To'g'onmi tirgak?

Shon talashsa kazo-kazolar.

Poygakdag'i jujuq shoirga

Yelka tutmoq ulug' jasorat.

Jasoratdir tag'in hulvoli,
So'zdan nafis chaman yaratmoq.
Ayol boshi bilan dunyoni
O'zbek degan yurtga qaratmoq.

HOLAT

...ga

1.

Gir aylanar shamol – so'zamol,
Hasratlari xayolga xalal.
Dilgir osmon, badar kezaman,
Iztirobdan irodam baland.

May yomg'iri mayin pichirlar,
Tabassum – qush, qo'nar yuzimga.
Meni g'addor dunyo ichidan
Tortib olar mungli musiqa.

3.

Yetmish ikki tomirinda nur,
Ohanrabo xonishingdan mast,
Men o'ynoqi kapalakday hur,
Bu dunyoning odami emas.
"Dooset daram, dooset daram..."

Neki og'riq bo'lsa zavoldir,
Kuy-u kalom – yengilmash qo'shin.
Voajabo, ajaldan oldin
Yuragimga chang solar qo'shiq.

"Dooset daram, dooset daram..."

2.
"...bo'sa nima?
U so'zsiz g'azal"¹
Ikki oshiq dillning bog'ichi.
Vo hasrato, hijronim hazor,
Lablarimda g'azal sog'inchi.

Ruhim ko'kda qiladi yallo,
Atrofida hur-u paridur.
Sen hofizmas, mehribon jallod,
Shirin o'ladirasan, Faridun.

"Dooset daram, dooset daram..."

Ko'zim yumsam, ko'zları porlar,
Musiqorday uchaman hozir,
Kuylayotgan bulbulmi, yo Rab?
Qanot bo'lar sohir ovozi.

¹ Maqjud Shayxzoda satri

SAVOL

Neki sir bor, fosh qilar xilvat,
"Voy, alamjo-o-on" – yirtilar tomoq.
Fig'onini nazarga ilmay,
Suvga sho'ng'ib ketar Oymomo.

Zulmat – yuho, yamlamoqqa shay,
Yulduz misol bodroqlar kadar.
Yuragini o'pirgan she'r qay
Olinmagan o'pichga badal.

Tevarakka xo'sininq sachrar,
Qon so'radi zimiston – zuluk.
Iljinji nur bo'lsa-da garchand,
Sirtmoq tutar qop-qora g'ulu.

Neki sir bor, fosh qilar xilvat,
"Voy, alamjo-o-on" – yirtilar tomoq.
Fig'onini nazarga ilmay,
Suvga sho'ng'ib ketar Oymomo...

Tun, Oymomo, ayriliq – xo'rlik,
Qurbaqlar nag'maga chechan.
Nahot tongga yetmaydi shor'lik,
Shoirda ne qasding bor, kecha?

Ilhaqman-u, tog'dan sado yo'q,
Ilhaqman-u, osmon-da sokin.
Savolim yo og'riqli, yo jo'n,
Dov-daraxtlar ilmsiz yoki.

Men Temurning avlod i bo'lsam,
Qonimdag'i qo'rquv qayerdan?
Suv quygandek atrof-javonib,
Na bir sas bor, na bir ishora,

Qaro deyolmasam qaroni,
Tilimni kim qo'ygan tushovlab?
Men Temurning avlod i bo'lsam,
Qonimdag'i qo'rquv qayerdan?

Aslida bu – yuragini dog',
Sha'n-rohingga tiralgan quroq.
Uyg'ot meni, saboq ber, saboq,
Tolqon yutib oldingmi, Turon?

Men Temurning avlod i bo'lsam,
Qonimdag'i qo'rquv qayerdan?

YIG'I

1.

Sindiradi lablar to'sig'in,
Ozodlikka chiqar hayqiriq.
Oqbo'yraning sirli qo'shig'i
Tunni ishg'o'l qilar ayqirib.

Yig'lagisi kelar odamning.

Sochingdan to tovoning titroq,
Shabiston-u shamolga mayna.
Shu majnuna holingda ham, boq
Zaminda eng baxtisan, Zaynab.

3.

Tomog'imni tirmaydi uh-hhh,
To'rt tomonim qibla alhol.
Majnun qadam bosgach, qutlug'
Qadamjoga do'ngan sahro.
Cho'llab-cho'llab ketmoqdaman.

Yig'lagisi kelar odamning.

Kurash ko'rmay yengilmoq alam,
Yupanch bo'limas silliq qofiya.
Qon yurakka botirib qalam,
Oyga qurban bo'lar ofiyat.

Ko'ksindagi qush yarador,
Devonalar dargohiga
Daydi epkin bo'lib mador
Yoboni-yu yantog'iga,
Yig'i kelmas, yig'i, na iloj.

Yig'lagisi kelar odamning.

Bu ne tortiq, be ne orom,
Chanqog'immi bosar ko'z yosh.
Ay, dilafro'z, ay, diloro,
Isming qumga yozar ko'z yosh.
Ruhim gullab ketmoqdaman.

Bolalarmi uyg'ot, shoirim,
Nurga ilhaq g'uncha-yu kurtak.
Izlarini qirar xoining
Manguberdi tug'ilgan yurtdan.

Otangga cho'p otsang,
Tosh bo'llib qaytar,
Hikmat bu - sim-siyoh ko'ngildan yiroq.
Birovdan ko'chirma bo'lsa ham aytay,
Mening merovlilgim - sochingdagij oq.

Falakdan kuzatar faylasuf quyosh,

Bir nihol gullaydi,
bir daraxt nurar.

Ulg'ayar bolamning qo'lidagi tosh,
O'ylasam, o'yilib chinqirar yurak.

Bolalarmi uyg'ot, shoirim,
Daydi itday izg'ir jaholat.
Kurashgaydir yoningga kirib,
Ertangi sulton-u daholar...

Uyg'otmasang, uyg'onmasa gar,
G'aflat-u g'am qoplasa yo'llin,
Millat qonin so'rар ertaga
Qobilmi'yo noqobil bo'llib.

Bolalarmi uyg'ot, shoirim!

¹Qobil - Odam Atoning o'g'lisi.

TO'QQIZINCHI FEVRAL O'YLARI

Siz uqlab qolasiz, bilmaysiz,
Qo'ng'iroq jiringlar asabiyl
Samoga sochilar, samoga
Tutunga o'ralib g'azabim.

Siz uqlab qolasiz, bilmaysiz
Ko'nglimda ne o'yilar kechganin.
Yuragim - qip-qizil daryoda
Titroqlar qirg'oqday ko'chganin.

Siz uqlab qolasiz, bilmaysiz
Na shoir, na Majnun odamni.
Bo'salar yuborib havodan
Siz ko'rgan tushlarda bormannmi?

Siz uqlab qolasiz, bilmaysiz
Yarim oy bo'zarib to'lganin.
Siz orom olgan tinch dunyoda
Tonggacha nimalar bo'lganim.

Siz uqlab qolasiz, bilmaysiz.

2.
Bu haykalning tevaragida
faqat, so'zga Majnunlar faqat
Etining bir jimirlashi bor.

Bu haykal kimgadir ulug'vor,
Kimgadir oddiy tosh,
sangtaroshning san'ati, xolos.

Ammo menga qiziq:
Umrini hazratning xazinalarin

sinchiklab, uqmoqqa baxsh etgan,
u haqda bo'yiday kitoblar yozib
va hozir
ko'zлari nursiz avlodga
uning dahloligin ma'ruzalarda
bot-bot isbotlashga urinayotgan
olimning
shu haykal yonidan
o'tar mahaldagi o'ylari.

3.

Ammo bu kun – bu boshqacha kun,
Yettidan to yetmishga qadar
(Avlyioning hurmati uchun)
saf-saf bo'lib kelar sahardan.
Mija qoqmay yodlangan g'azal
yosh qizchanning tilida takror
adashmaslik uchun sahnada.

Haykalining tevaragida
balki uning ruhi – shodumon.

Bayt sharhlaymiz, ruhi shodlanar,
Sharaflaymiz, ruhi shodlanar,
Gulchambarlar to'shab poyiga
Keyin qarsak muhim...
Shodlanar.

Bu shunchaki faraz, ehtimol,
She'r tinglab ko'k, tuproq shodlanar.
Akrom Malik chiqsa ochiqqa,
Balki, ruhi ko'proq shodlanar,
Balki, ruhi ko'proq shodlanar!

4.

Kechiring, biz noraso avlod,
Qo'llimizdan sizni olqishlab,
"Kelmadi"ni aytmoq keladi, xolos.

DARAXT

Abdulla Qodiriyga

Quyosh yo'lin to'sa olar kim,
To'zib bitti qora pardalar,
Ilazingga chang solgan mal'un
Qizil ajdar ketdi davradan.

Vujudimda o'rmalar farah,
Yaproqlaring – ko'ngil ohlaring.
Buncha baland o'sding, ey daraxt,
Yulduzlarga tegdi shoxlaring,

FOJIA

Sen bilan bir umr qolmog'im uchun
chiroyli turmaklar shart emas,
sinovlar, g'urbatlar shart emas,
saharda jilmayib jo'natmoq ishga,

tunda kutib olmoq issiq choy bilan.
Tuvakda karnaygul o'stirmoq yoki

sochingnii o'stirmoq tovonga qadar
shart emas, qushlarni sevmog'ing
Yo palov taylorlash bir menga atab.

Shart emas, tug'ilgan kunim oldidan
Quyoshni qarshilab nimcha to'qimoq.
Yoki yuragimga cho'kkan xotira –
nimjon she'rlarimni yig'lab o'qimoq.

Shart emas...
Shart emas...

Sen bilan bir umr qolmog'im uchun
o'g'lanning onasi bo'lganining yetar.

Qish tunlari o'ylardek uzun,
Arosatda pahlavon kelbat.
Joningning jon tomirin uzib
Qorparchalar sochadi fevral.

Omboringda ko'mir muammo,
Qaltilraysan, qo'llaring yupqa.
Zaifang-ku mo'mina, ammo
O'chashganday ayozda tuqqan.

Ko'z yumasan, otang ko'rinar,
ko'z ochasan, ko'rinar bolang.
ko'zlaringga xato ko'rinar
Sho'r tuproqdan pishgan zuvalang.

Otilasan eshikka so'ngra,
Axir hukm o'tkazmoqda qish.
Qanday og'ir – ezilib, ho'ngrab
Otang ekkan o'rikni kesish.

VATANGADO

Oq yo'l...
 Onaning ko'z yoshi aralash,
 Otaning ertangi umidi,
 O'g'lini kutardi kelajak.

Oq rang – musaffolik,
 Oppoq orzular bilan
 shaharga jo'naydi poyezd va o'g'il.

Yuzi g'adir-budur otaning

soqoldida oq – nuroniyilik,
 Sochida oq – o'slim haqligini
 va Allohni eslatar bot-bot.

Shayton esa qiyomatgacha
 oqar odam qonida.
 O'g'il adashgan satang.
 Attang.

Aylanar charx, dilbar fasllar,
 Bog'-u bahor ochmaydi quchoq.
 Xotiralar qaro qasirg'a,
 Ta'qib qilar o'rkach-o'rkach tog'.

Xumori xush ajnabiy yurtda,
 Subhoni-yu chapazak, charos.
 Yolg'izlik yov, yuhoday yuttar,
 Yurak – dashtga ichikkan saroy.

Ta'qib qilar yer chizzgan oraz,
 Ta'qib qilar o'rkach-o'rkach tog'.
 Gijda nommas, Quva anormas,
 Qop-qop qarg'ish yuborar qishloq...

Mo'l tiraysan – bechora, yupun,
 Tarix shunday kechar azaldan.
 Soqolingga sachraydi tupuk,
 Yuz o'girib ketar Ajal ham.

Yurt yuziga bosilgan oyog'i bilan
 qon kechadi muhojirlidka.
 Endi oq rang qo'rqinchli...
 Ona oqqon.
 Kul bosadi yurakning cho'g'in.
 Kezib yurar qora dunyoda
 otasiga oq bo'lgan o'g'il.

MUNG

1.

Bola edim, gavron ot minib,
Yarashardi quvonch-u quvlak,
Ko'zlarimga chizilding qaydan?

Sen, onam dast ko'targan ketmon
chopganiday yovvoyi o'tni
chopilmading ildizing qayda?!

Bola edim - olam serjilo,
Qor bosganday bosildi suron.
Ketar dedim yig'ilar bilan,
Ko'zlarimga boitding chuqurroq

2.

Otam bilan o'qishimga deb
qarz so'rading yurib uyma-uy.
Oh, sho'rlikning yuragini yeb,
Men sen sabab bo'larmen buyuk?

Sen shabnamsan, yurak yongulik
tunning tongga yozgan xatisan.
Baborlarni bezagan gulning
kapalakka xiyonatisan.

Sen vidoga ulangan visol,
Arnug'on sen, ashk sen, nadim sen.
Ayvondagi qaldirg'och misol
Qarog'imda bolaladling sen.

Sen hayot-u mamot orasi -
Baqo sari eltar yo'lmisan?
Qay shoirning o'gay bolasi,
Qay sultonning yetim o'glisan?

4.

Chopilmading, ildizing qayda???

... Otam oqshom qaytdi - baxtiyor,
Kaftida pul, tillari burro.

Ko'zlaridan chiqib ketding-o-o-o,
Ko'zlarimga botding chuqurroq.

3.

Sen - quyoshni sog'ingan bog'ning
Chilladagi cho'ng nolasiday.
Bir lahzaga qalqjan sirtmoqning
bir umrlik hikoyasiday.

SINF DOSH QIZ

1.

Darslarda darz ketib xayol,
Yuragimda bog' - yalpizli.
Hurga mengzab husn-u hayo
Sariq ko'ylak kiygan qizni.

Beshinchida o'qirdik.

Beshta oshno, beshta Majinun,
Bodi shoir qilar yodi.
Otgan mushtim - rashk-u ranjim,
Totgan mushtim biram totli.

Beshinchida o'qirdik.

Hovuchimda moviy osmon,
Nash'alarim janbil isli.
Men - lahma kashf etgan rassom,
Daftarimga yurak chizdim.

Beshinchida o'qirdik.

2. Yuragimda rayhon o'sib,
Ildizlari uyg'oq edi.

60

Kafti bilan yuzin to'sib,
Sinfdosh qiz yig'loq edi.

Dudoqlari tog' olchasi,
Qaramaslik gunoh edi.
Aytib bersin ro'molchasi,
Sinfdosh qiz yig'loq edi.

Ko'zlarimda gullab bahor,

Hislar momaqaymoq edi.
Achinmasdi durga, nahot,
Sinfdosh qiz yig'loq edi.

Orzu - osmon, oyga shoshdik,
Axir, manzil yiroq edi.
Xayr, maktab, xayr, yoshlik,
Sinfdosh qiz yig'loq edi.

3.

Bor g'uborin to'kdi bog'lar,
Nayson keldi, kelurmisan?
Sochlaringa Ulug'tog'dan
Bayzo keldi, kelurmisan?

Bu ne sog'inch, uzo-o-oq keldi,
Sitamdan yo'l tuzab keldi,
Saraton-u kuzak keldi -
Xazon keldi, kelurmisan?

61

Kipriklaring shoh asardir,

Yozsam, o'ida yoqasanmi?

She'r - bedavo, shum kasallik -

Jazo keldi, kelurmisan?

Ming yil kutdim, bitdi muhlat,

Chorlamishdir rafiq ruhlar,

Hurlar halak, yotsam uxlab...

Qazo keldi, kelurmisan?

Ayo, sevgim!
Qaqradi lablar

tashnalar day tamshanib ko'kka.

Bir yutoqib yutti hilolni

Nahanglarni ko'rib bo'ldik biz.

MAKTUB

Kitobingdan xat chiqdi nogoh,
Butun sinf pichir-pichirda.

Ko'zlariningmi yashirning darhol,
Kimdan shubha qilding ichingda?

Kitobingdan xat chiqdi nogoh,
Sen uyatchan, sen xijolatda.

Billarding-a, bitta ko'ngil bor
Muallifi nomalum xatda.

Ayo, sevgim!
Hayot xazonrez,
Zahar tutti hovuch-hovuchlab.
Hali o'tib ko'rganimiz yo'q,
Jahannamni ko'rib bo'ldik biz.

Kitobingdan xat chiqdi nogoh,
Uyga qaytdim tirmab ich-etim...
O'tib ketdi yigirma bahor,
O'sha xatni yozgan men edim.

* * *

1.

Gul visoldan, xazon g'uussadan
 She'r o'qiydi - ko'z yoshday tiniq.
 Tutqatorda qolgan bo'saday
 Shiraltdir jilg'aning tili.

She'r bir ko'zgu, yurak tilinib,
 Jo'n libosga jozib ruh bermak.
 Achinasan, shoirning tili -
 Bechora til, bor-yo'g'i ermak.

* * *

2.

Hilol - roviy, ertagi uzun,
 Shu'la balqir intihosida.
 Ko'hna tog'lar - botirlar - so'zi
 Jasoratga undar vosita.

Tili chuchuk boladay bahor,
 Yomg'ir esa qo'shiqdir; nolon.
 Har zarraning aytar so'zi bor,
 Eshitguvuchi qulqoq yo'q, xolos.

* * *

Tun...
 Shoirning baxtiday qaro,
 Xotiralar mendan o'ch olar.
 Jonim zarif g'ussalar aro
 Sochlariningdek uzun kechalar.

Tun...
 Ko'ksimda ulkan alanga,
 Cho'glanadi yulduzlar - chaman.
 Sezdim: borsa kelmas yaralgan
 Sochlariningdek uzun ko'chalar.

To'rt tomonim sen - sohibjamol,
 Boshim oqqan tomonga yurdim.
 Meni tezroq nigohingga ol
 Sochlariningdek uzummas umrim.

Bizning kunlar "mo'ysafid qog'oz"
 Tilga kirma, chehralar iliq.
 Eng jarangdor, eng ulug' ovoz,
 Eng o'tkir til - kursining tili.

BOLAKAY...

Nanozshomning qaro zulfidan –
zulmatidan qo'rqma, parizod.
Oldindadir sohir subhidam,
subhidamday safoli visol.

Xurram xatlar eltar (o'n, yuz, ming)
oqar suvlar – garchi bo'tana.
Hoshiyasin bezagan isming
jirovlarday kuylab o'taman.

She'r bo'lursan – bo'yari hulvo,
Asrlarni yengar-ku yozuv.
Axir, so'zdan Registon qurmoq
G'aribingga bolalik orzu.

Na yarog', na yovga egilar bu bosh,
Na sitam-sinovga egilar bu bosh,
Na g'ofil, na g'ovga egilar bu bosh,
Egilgan bosqlarni qilichlar kessin¹
na sadr-u siylovga egilar bu bosh.

Yolg'iz sen istisno,
ishorang amr,
Qatorda norim bo'l, og'indir yukim.
Istasang, poyingga cho'kib, dagarim,
Bog'ichingni bog'lab qo'yishim mumkin.

Kel, shomlardan qo'rqma, parizod,
Nahot zarra marhamating yo'q.
Cho'kib borar g'ururim – Hisor,
Bir shoirning uvolidan qo'rq.

¹Shavkat Rahmon satri.

Kuzgi osmon motamsaro,
Bulutlari ketdi to'zg'ib.
Vido keldi, olam qaro,
Nido keldi, kuydi bo'g'zim.

Xazon uzra kavsari ob

to'kildi tiyra mujigondin.

Qarog'im - g'amguzor kitob,
O'qisang, nola g'ujg'ondir.

Kulgichida kunduz yashar,
Parizodam, semmisan, ayt!!!
Dahri dunnı lak-lak lashkar
emas, sevgi etar-ku zabit...

Qaysman, qaddi gul, guharim,
Hajring ham nur, ajrdayin.
Evoh, Navoiy yo'q, mani
doston qilar Majnundayin.

Kuzgi osmon motamsaro...

Kut meni...

Kut meni
kunduzlar, kechalar,
Parishon, yuvoshim, kut meni.
Labingdek qirmizi ishq uchun
Kulgichi quyoshim, kut meni.

Kut meni
kunduzlar, kechalar,
Shamollar, yomg'irlar, do'llarda.
Qonimdan gul chizib ishq uchun
Sen tomon ketyapman yollarda.

Kut meni,
kunduzlar, kechalar,
Siymbar, sumbati sanobar.
Jonimning ildizi ishq uchun
Farhodman, Majnunman, San'onman.

Kut meni
kunduzlar, kechalar,
Oh urib, ozorlar oraman.
Loaqlal, emaklab so'nggi kun
Oyog'ing ostiga boraman.

HAYOT

Mushti qattiq hayot, mushtipar hayot,
Gohi qo'rqinchli tush, gohi sohir tush,
Ko'hna to'lqinlarda sapchiyman qayon?
Bir qirg'oq halovat, bir qirg'oq urush.

Tug'ilmoq hukmdir, qazo hukmdir,
Oraliq - ko'z ochib yungunchalik yo'l.
Tarlonday yayradim, sherdai o'kirdim,
Hayot - orzuli yo'l, hayot - hadik yo'l.

Eng sodiq habib u, eng makkor dushman,
Ko'nrgilday farishta, ko'ngilday yovuz.
Navozish navolar ingroq tovushda,
Irganach intiqom u, bosilgan hovur.

Bir qarasam olov, bir qarasam suv,
Haybatli chakalak, hayratti chaman.
Hayot - she'rimdagi bevafo suluv,
Men seni sevaman...
Nafratlanaman...

Mushti qattiq hayot, mushtipar hayot...

TO'YING KUNI

Sen ketasan, yig'lab ketasan,
Xayrlashar yo'llar, daraxtlar.
Endi kimga aytar ishqimni
Sandig'ingda sarg'aygan xatlar.

Sen ketasan, yig'lab ketasan,
Chiroyingga to'sib paranj.
Chinqiraman tugib mushtimni
Boy bo'lmagan otamdan ranjib.

Sen ketasan, yig'lab ketasan,
Birga yig'lar ko'ngli bo'sh yanga.
Yuragingdan yerga tushdimmi
Ko'tarigach baxmal go'shang'a?

Sen ketasan, yig'lab ketasan,
Bu ne ertak - munqli niboya?
Meni g'ajib tashlar tushkunlik,
Bo'sag'angga yiqlar soyam.

Sen ketasan, yig'lab ketasan...

O'QITUVCHI

1.

Yo'l - cho'kirlik, haqiqat avlo
Cho'ng kitoblar bezabon ovunch.
Yonib tursa navqiron avlod,
Navoiyga yetaklamoq burch.

Tun qorong'u...

Iljinji nurli,

Yurak uyg'oq, yorug' kechinma.
Bolalarmi uyg'otmoq - hurlik,
Xiyonatni Xudo kechirmas!!!

Ruh baxsh etar munavar o'yি
Baytullonga yetgan kishiday...
Uxlab qoldi o'tirgan ko'yи,
Payg'ambarни ko'rdi tushida.

2.

U hech narsa qilmadi - beayb,
Tongda chiqqib, qaytdi namozgar.
Yashayverdi shiddat, ruh bermay
Ichidagi sokin ovozga.

U hech narsa qilmadi, tamom
Ne yillarni yengdi yiqlimay.

Buyuk avlod bor edi, avom,
U o'lirdi hech narsa qlimay.

So'rog'im bor - mungli qo'shiqday,
So'roq - o'kinch, chandig'i ulkan...
Uxlab qoldi yumshoq to'shakda
va tush ko'rdi - besarhad gulxan.

Xiyonatni Xudo kechirmas!!!

QACHON...

Qachon ro'yob bo'ladi ro'yo,
Qachon timar davkar dolg'alar?
Yurak to'xtab qolgudek go'yo,
Yangog'ingga yetkanida lab.

Tush-ku shirin, achchiqidir hayot,
Ishq - xunoba, jilmayar raqib.
Sen shu qadar yaqinsan, xayol
lahzalarda yetkudem yaqin.

Menikisan bir qadam bossam,
Oyog'im shol, qo'llarim gadoy.
Qachon qulab tushadi osmon,
Qachon senga yetishaman, OY?!

BOKS. RIO-2016 OLIMPIADASIDAN SO'NG

(Rafiqamga)

Senga atab she'r yozdim,
Yuragimni hovuchlab.
Bo'g'zimga keldi bot-bot,
O, muattar sog'inchar.

Senga atab she'r yozdim,
Har imlosi mehrdan.
Bu xayoliy munojot,
Ey, ko'zlar i sehrgar.

Senga atab she'r yozdim,
Ruhim sarxush sarosar.
Sen Tangrimdan mukofot,
Sen Tangrimdan jazosan.

Senga atab she'r yozdim,
Kuyi ko'nglimday hazin.
Meni eslatib bot-bot
Qizchalaring yodlasin.

Senga atab she'r yozdim...

Senga atab she'r yozdim...

Turkona zarb devni yiqtar,
Siz Alpomish – yurtiga qayygan.
Al-Beruniy kashf etgan qit'a
Talmovsirab qoldi hayratda.

Quvonchli she'r, samimiy izhor
Bu maddohlik emas – tasanno.
Ich-ichimda ismsiz hislar
Shahobiddin, Shahram, Hasanboy.

Ruhim asov, g'ayratim oshar,
Galabalari naqadar shonli.
Ahli dunyo, mana tomosha
Bu bolalar O'ZBEKİSTONlik...

Yuragim sel...
Qorasochim, kel,
Erkalayman tunlar uyg'otib.
Tojmahallar qurib beray, sen
Fazliddinlar tug'ib ber, xotin!
Bektemirlar tug'ib ber, xotin!!
Murodjonlar tug'ib ber, xotin!!!

TARIX

Oppoq ko'yak, gulli bo'yinbog',
Qora tuflı, yaltiroq soat.
Shu kelbatga tasadduq ro'mol
Bostirmada govmishni sog'ar.

Tor sahnda qishloqi shamol
To'zonidan jirkanar tuflı.
Odimlaydi mashina tomon
Masofadan ochgancha qulfini.

Moshin jo'nar...

Eshik ochilib,
O'tmishimi solib yodimga
Bug'doyzorga ketar shoshilib
Yamoq kamzul, yirtiq botinka.

Kinoyalar – ildizi kurash,
Qilmishlar fosh, podshoh g'azabnok,
Jabrdiyda odamlar – yuvosh,
Ich-ichida aytar tasano.

Qonsiragan barzangi jalloid,
Hukm yangrar: "Tillarini qirq..."
Masxaraboz bezabon, ammo
Yuzlarida mazaxli qiliq.

Masxaraboz – dovyurak jinni!

MOZOR BOSHIDAGI O'YLAR

*Aqto'be fojiasida vafot etgan 52 o'zbek
xotirasiga*

1.

Dahshat asli nadir...
Uyqung buddimi?
Ajalning xufyona ta'qibi – dahshat.
Uchib borolmasa mo'min buzruging,
O'rtadagi cheksiz chaqirim – dahshat.

Samandar qushlarim, tanti qushlarim,
Bu tush deb, yoqamni qattiq ushладим.
Nolalar, jalolar dahshatlari, tag'in
Vodiyydan o'rلانan baqiriq – dahshat.

Bu sukutgoh, mitti tog'lar
qad ko'tarmish,
yurak cho'kmish,
savollar besamar, beruh,
gungni gardish?
Yurak cho'kmish,
ichkarida ne hayotdir: bahormi, qish?
Yurak cho'kmish.
Kuymanib-kuymanib oxir
qaro tuproq bo'lar taqdir,
Chin hikmat manzili mozor –
Xudo bir, Rasul barhaqdir.

2.

Mana she'r daftarin – qora kundalik,
Eng dahshatlari bir she'r bo'ldi undagi
Ellik ikki o'zbek yongan kundagi
Bo'g'zimga tiqligan hayqiriq – dahshat.

Qor-u yomg'ir, bog'-u sahro,
ko'kda oftob-u oy qolgay,
bunda farzandi mazlum ham
uch kunlik g'am aro qolgay,
savashlar, suron-u urho,
yana sayr-u saroy qolgay,
"murodim bo'ddimi hosil?"
so'nggi lahza savol qolgay,
yo ziyo qolgay munawvar,
yo ziyon-u zavol qolgay.

Kuymanib-kuymanib oxir
qaro tuproq bo'lar taqdir,
Chin hikmat manzili mozor –
Xudo bir, Rasul barhaqdir.

3.

Bu tufroqni chayon bosgan,
g'aribning zavqi oniyidir,
kim haromdan hazar qilmas,
faqirning boshida biydir,
Qobil boslab ketgan nizo
turfa ko'yda davomiydir.
Kuymanib-kuymanib oxir
qaro tuproq bo'lar taqdir,
Chin hikmat manzili mozor –
Xudo bir, Rasul barhaqdir.

5.

Gul bazmiga qo'shar Horis,
nayranglari fusunlidir,
bayramlari fusunlidir,
gunoh qilsam huzurlidir...
Tavba qildim, tavba qildim,
jolalarim huzunlidir,
so'rog'im ne kechar – qo'rqinch,
notavon rubga sirlidir,
qanday shoir eding dermi
va yo qanday o'g'il bo'lding?
tafakkur etsam tanazzul –
ikkisi ham qusurlidir.
Kuymanib-kuymanib oxir
qaro tuproq bo'lar taqdir,
Chin hikmat manzili mozor –
Xudo bir, Rasul barhaqdir.

4.

Bunda ruhlar duo istar,
gumbaz nechun,
shon uchunumi?
Yo yiqqani qolib dunda,
bo'm-bo'sh ketgan jon uchunumi?
Yo og'zining bog'ichi yo'q,
dabdaba zamон uchunumi?
ixlosmi bu,
ikrommi bu?
yo uzun zabon uchunumi?

6.

Ko'z oldimda beshik-tobut,
o'rtasi oq-qaro yo'ldir,
gohi xushnud qadamlidir,
gohi motamsaro yoldir,

gohi gulshan, gohi qonli
biyobonlar aro yo'ldir,
qozi yo'qdir, hakim yo'qdir,
vodarig', mojar oyo'dir,
oq yo'rgak ibtido yo'ldir,
kafanlik intitho yo'ldir,
bu bulg'anç soyalar bordir –
zulumot bor, nifoq yo'ldir,
"Fotiha", "Yosin", "Taborak" ...
ham oyatlar shifo yo'ldir.
Kuymanib-kuymanib oxir
qaro tuproq bo'lar taqdir,
Cnii hikmat manzili mozor –
Xudo bir, Rasul barhaqdir.

7.

Mudom oshiq olov ichra,
mudom shoir jigarxummi?
Munofiqning boshida toj,
miskinning gashki Sayxunni?
Bu yomg'ir elchimi ko'kdan,
bu shamol chinqiroq unni?
har zarra mo'jiza qutlug',
shundayam kutganing xummi?
Kuymanib-kuymanib oxir
qaro tuproq bo'lar taqdir,
Chin hikmat manzili mozor –
Xudo bir, Rasul barhaqdir.

8.

O'zing Qodir, O'zing Fattoh,
umidvorman, Hukmdorim,
g'ulomingman, bo'g'zimda oh,
umidvorman, Hukmdorim,
bu suktogoh, ko'ngil shaffof,
umidvorman, Hukmdorim,
o'zim g'ofil, O'zing G'affor,
umidvorman, Hukmdorim,
Kuymanib-kuymanib oxir
qaro tuproq bo'lar taqdir,
Chin hikmat manzili mozor –
Xudo bir, Rasul barhaqdir.

DO'STIMNING KITOB JAVONI

Muqovasi zarhal, yaltiroq,
Qalin kitob oldi-yu qo'lga,
Afsuslandi: "Bechora kitob
Shoiridan avvalroq o'lgan".

So'ng boshhqasi - varaqlari dog'

"Bir zamonalr ovoza bo'lgan",
Ma'yus tortdi: "Bechora kitob
Shoiridan keyinroq o'lgan".

Chehrasida tabassum zohir,
Bir kitobni o'pdi ardoqlab.

"Har satrida tirikdir shoir,
O'llimni ham qoldirib dog'da".

QOPLONBEK QO'SHIG'I

Har oqshomda botadi ufqqa,
Har saharda uyg'onar umid.
Isyon qilar ichida shubha:
"Parvardigor!!!

Borliging shumi???"

Xo'rsinadi mevasiz daraxt,
O'ksinadi zamin-u gardun.
Kattalashar ko'ksida yara -
Tili bilan yuradi mardum.

Tirnaladi tironqsiz bag'ir,

Tokay taskin topadi tushdan.
Kuzgi bog'day huwillar, axir,

Bahor olib kelsang-chi, Xushvaqt.

Derazadan zulmatga qarab
Mo'liraydi har tun yotarda:
"Ertaga kim tobut ko'tarar,
Ertaga kim yig'lar otamlab".

OTAMGA

1.

Tun keladi zamin oralab,
Ufq quyoshning qonini ichar.
Ko'ylagining battar qoralar
Yelkangdagi bir etak pichan.

Odam bo'lib ko'rdingmi hashham,
Zar topdingmi shudgor ichidan?
Xo'rlab kelar uygacha har shom
Yelkangdagi bir etak pichan.

O'rog'ingni qayragan qayroq
So'zlarimni qayramas picha.
She'rilarimdan ko'ra balandroq
Yelkangdag'i bir etak pichan.

quyoshda toblangan ey, qora odam,
Sen eng yorug' she'rim.
Bo'rib chiqqan qon tomiriaring
Ulug' daryo - halollik oqar.
Muhabbat oqadi shu qadim
tuproqqa muhabbat - bebaboh...
Xo'rozi muazzin tonglarda
ikki tog' - yelkangga opichib
ko'zlar niurlangan qishloqi
bolani sog'indim.
Sog'inchim,
yarq etdi yowvoyi yashinday
ilk bora senga she'r atadim.
Ilk bora hayqirdim tashimda:
Bag'ring - ikki dunyo Vatanim.
Sog'indim...

Og'irlashar qadamma-qadam,
Og'irlashar hatto sog'inchdan.
Seni xarob qilamiz: men va
Yelkangdagi bir etak pichan.

2.

Sog'indim...
Dunyoning bir chekkasida
jimitdek jonini Jabborga berib,

Hovlimizza shodlik, marhabo!
Bir yo'qlab kel, o'zing ko'rsarsan.
Kenja botir – turkiy pahlavon
Ertaklarda topgan jo'ramsan.

Bolalikdan senga yelkadosh
Hamroh o'sdim, yurakda havas.
Ming sinovdan omon chiqqan bosh
Bosgan yo'ling avlodlarga dars.

Razolatning halokati chin,
Yuksalasan sodiq, suyanchiq.
Turkiy qavm oromi uchun
Ikki boshli ajarni yanchib...

Sen bek yigit, navqiron, nodir,
Quvonchimga qo'shil, marhabo!
Ota bo'ldim, ey alp, bahodir,
O'g'ilim bo'lzin senday pahlavon.

Xat yubording, rohat yubording,
Hijjaladim hovliqib, yayrab.
Yanog'ingdan (esingda bordir)
o'pich olgan kunimdek – bayram.
Cheksizlikdan cheksizmi titroq?
Ishtibohlar – xazon, yanchilar.
Qoraxatning chändig'i bitmay
o'zi kirib kelgan jangchiday
tasavvurga sig'mas quvonchning
lablarimda o'ynar jarangi.
So'zlariningda yosuman soching-
ning muattar ifori anqir.
Chor tarafga boqdim – jovidon,
Zamin kaftdek, qanotsiz uchdim.
Shu bir parcha maktub oldida
mening bari yozganim puchdir.
Xat yubording, rohat yubording,
Hijjaladim hovliqib, yayrab.
Yanog'ingdan (esingda bordir)
o'pich olgan kunimdek – bayram.

Sen darsga kelmadning, o'sha kun
Avzoyi buzildi havoning.
Olamda judolik ranglari,
Baribir ko'zlarining samoviy.

Sen darsga kelmadning, o'sha kun
Sinfidosh qizlarning ko'zları
Sinovchan boqdilar, angladim,
Qoldimmi shunchalar o'zgarib?

Sen darsga kelmadning o'sha kun,
Sog'misan? Ruhimda vahima.
Hilolim, Ibolim, Malagim,
Men faqat sen bilan baxtliman.

Sen darsga kelmadning o'sha kun...

Men she'r dedim,
"Telbalik", - deding,
Baxt yo'li bu, so'zimga ishon.
"Hayot - baland tepalik", - deding,
"G'o'r she'rlaring oyoqqa tushov".

Kechalarda kechardi umrim,
So'z axtarib, seni axtarmay.
Ishonmasdim, she'rim tug'ilib
Bizni ayro qilsa baxtlardan.

Men she'r dedim, so'zları keskir,
O'z lafzidan seskansa tanim.
Sezdum, alam qilganin sezdim
She'rnı sendan ko'proq sevganim.

Men bilardim, she'riyat - huzur,
Huzuringga eltmadi bu yo'l.
O'g'illar tug'
va so'nggi so'zim:
She'rlaringha boshqorong'i bo'l.

SHOIR BO'LSANG

Shoir bo'lsang...

Huuuv burni puchuq,
qoshlarida barmog'ing izi –
oqshomlarda kitobing quchib,
uxlab qolsa maktabdosh qizing.

Shoir bo'lsang...

poyingda osmon,
Mag'lub yovday chekinsa qo'rquv.
So'z muqaddas, ilinjing yozmoq,
Intihosi o'lim yo'q yo'l bu.

Shoir bo'lsang...

Somonsuvoq uy
(kitob hidj anqigan, jannat)
o'chog'iday yonsa, ilohiy –
ko'ksingdag'i tutqun Muqanna.

Qonga bo'yab o'sha yeringni
huzurlansa xumordan chiqib,
so'ng uzzatda yozgan she'ringni
o'qib, mazzza qilsa raqibing!

Shoir bo'lsang!!!

UMRIMDAN UCH KUN VA ORZU

1.

Uyga qamab qo'ydi suvchechak,
Yuzim yashil,
urgandek yashin,
Ujonhalak bo'ldi shu kecha...

2.

Oqshom edi,
singlim tasodif
gullab qo'ydi "Gul" ning daragin.
Yuzim qizil,
qoldim yer chizib...

3.

U umidvor...
Xunuk quladim,
Dorilfunun – baland cho'qqidir!
Yuzim qora,
o'rtab yuborar,
Qarog'idan qayg'u o'qidim...

4.

U adoyi qamarim hamon,
Umri ko'z yosh, men uchun oqdi,
Shu ayolning qoshida, Xudo,

MUNDARIJA

"Siz uxtlab qolasiz..."	3
To'qqizinchchi fevral o'yari	50
Daraxt	51
Mart chizgilar	56
Otaning so'nig'i kunlari	58
Onamga	59
Geografiya darsi	60
Bolalik sog'iinchchi	61
She'r	62
Bolalikda yozilmagan she'r	63
Estik tarz yopildi	65
Istafdiyorga	66
Qiyosha	67
Ay. yodi..."	68
Bolalikda yozimagan she'r	69
Estik tarz yopildi	70
Shoирга halovat	71
Nasimy	72
Tun	72
Tushkunlik	75
"Qayrag'ochlar qartaydi"	76
Bobo	77
Siyosat	78
"Tashqarida bahor..."	79
"Xushboy' nasm olamni tutdi..."	80
"Sen bir xayol..."	81
Jasorat	82
"Mana bu gul..."	83
She'r'im	84
Eshikni qulflayman	85
Mitti xulosa	86
"Nazmy" satoy	87
"Holat"	88
"Neki sir bor..."	89
Savol	90
Vig'i	91
"Otangga cho'p otsang..."	92
"Bolalarmi uyg'ot, shoirim..."	93
"Shoir bo'sang..."	94
Umrindan uch kun va orzu	95

31261804

УО'К: 821.512.133-1(081)
KBK: 83.3(50'zb)

A 37

A 31 Aziz, Nurmuhammad.

Zarif g'ussalar [matn]: *she'rilar* / N. Aziz.
– Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2020. – 96 b.

Adabiy-badiiy nashr

NURMUHAMMAD AZIZ

ZARIF G'USSALAR

She'rilar

Muharrir: D. Mingboeva

Badiiy muharrir: F. Ermatov

Sahifalovchi: N. Soatov

Musalihih: Sh. Hakimova

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
"ADABIYOT NASHRIYOTTI" MCH]

Nashriyot litsenziyası: AI № AA 0043. 27.01.2020.
100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

© (98) 128-30-04.

Bosishga 20.12.2020-yilda ruxsat etildi:
O'set qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90 $\frac{1}{32}$.

O'set bosma. Hisob-nashriyot t. 3.0.

Adadi: 5000 nusxa. Buyurtma №366.

Насирията: "AZMIR NASHR PRINT" MCH bosmamaxonasida chop etildi.
Dengiz 100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-up.

100200 Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-up.